



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI INSON MANFAATLARI HOMOYASINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY VOSITASI

"Alfraganus university" Turizm fakulteti dekan o'rnbosari

Urazov Abrorbek Mamirjonovich

abrorurazov1989@gmail.com

Annotation:

Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ajralmas qismi bo'lgan hamda inson manfaatlarini himoya qilishda zamonaviy siyosat vositasiga aylanib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati, uning ustuvor yo'nishlari, vazifalari, mamlakat siyosiy jarayonlardagi o'rni, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati yo'nalishiga qarab turlari haqida ilmiy dalillar asosida fikr yuritilgan. Bundan tashqari maqolada fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati borasidagi jahon tajribasiga ham e'tibor qaratilgan.

Аннотация:

В статье рассматривается деятельность институтов гражданского общества, которые являются неотъемлемой частью проводимых в нашей стране реформ и становятся современным инструментом политики по защите интересов человека, их приоритеты, задачи, роль в политических процессах страны, а также а также деятельность институтов гражданского общества. Виды «пения» обсуждаются на основе научных данных. Кроме того, в статье рассматривается мировой опыт деятельности институтов гражданского общества.

Abstract:

This article discusses the activities of civil society institutions, which are an integral part of the reforms being implemented in our country and are becoming a modern policy tool in protecting human interests, their priorities, tasks, their role in the country's political processes, as well as the types of civil society institutions depending on their areas of activity, based on scientific evidence. In addition, the



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

article also draws attention to the world experience in the activities of civil society institutions.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati institatlari, demokratiya, islohot, inson manfaatlari, huquqiy ong, qonun ustuvorligi.

Ключевые слова: институты гражданского общества, демократия, реформа, интересы человека, правосознание, верховенство права.

Keywords: Civil society institutions, democracy, reform, human interests, legal consciousness, rule of law.

O‘zbekiston Respublikasida ko‘p tarmoqli hamda keng ko‘lamli islohotlarni jadal shaklda amalga oshirayotganligi ko‘plab xorijiy davlatlar, xalqaro toshkilotlar romonidan tan olinmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy yo‘nalishi jamiyatda inson manfaatlarini himoya qilish, barcha uchun keng umkoniyatlar yaratish, ayniqsa, inson qadrini eng oliy qadriyatga aylantirish hisoblanadi. Bu kabi yuksak maqsadni amalga oshirishda esa fuqarolik jamiyati institatlari muhom vazifalarni bajaradi. Xususan, Prezidentimizning 2021-yil 6-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda jamiyatimizning barcha sohalarini isloh etish, jumladan, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi farmoni bilan 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiysi tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-maydagi qarori bilan mazkur konsepsiyanı 2023- va 2024-yillarda amalga oshirish uchun chora-tadbirlari belgilandi[2].

Ko‘p yillardan buyon fuqarolik jamiyati institatlari tushunchasi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan bo‘lib, lekin normativhuquqiy hujjatlarda mazkur institutning huquqiy maqomi belgilanmagan, shuningdek, ularning faoliyati mazmuniga oid huquqiy kafolatlar belgilanmagan edi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

O‘z taraqqiyot yo‘lini tanlagan mamlakatimiz “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini izchil amalga oshirish doirasida barqaror fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishni muhim vazifa sifatida belgilagan.

Mamlakatda demokratiya, huquqiy davlat, jamiyat va shaxs erkinliklarini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlari eng muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Ular jamiyat a’zolarining fuqarolik faolligi, milliy o‘z-o‘zini anglashi, siyosiy madaniyati, huquqiy ongini va yuksak ma’naviyatini shakllantirishga hamda uni doimiy ravishda rivojlantirib borishga ko‘maklashish, mustaqil fikrlash, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir. Bu xususda

Fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat hayotidagi o‘rni va ahamiyati aholining turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarini ifoda etishda, fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda, davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi, butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tatbiq etishda davlatning teng huquqli ijtimoiy sherigi, hamkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda fuqarolik jamiyati bu ijtimoiy hayotning davlat ta’siri va aralashuvlaridan, ma’muriy tazyiqlardan xoli bo‘lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir.

Mamlakatimizni demokratik modernizatsiya qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyati muttasil oshayotgani fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning fuqarolik ongi hamda siyosiy-huquqiy madaniyatining barqaror o‘sayotganidan dalolat beradi. Bu esa kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamg‘armalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydigan



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Ular O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining institutlari tuzilmasini tashkil etadi va fuqarolarning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni bajarishda faol ishtirokini ta’minlashga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, fuqarolik institutlarining huquq va erkinliklariga rioya qilish kafolatlari, ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishga oid tamoyillar mustahkamlab qo‘yilgan.

Bu borada qabul qilingan jami ikki yuzdan ortiq qonun hujjatlari mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini izchil rivojlantirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fuqarolik jamiyatiz zamонавиъи davlatchilikni tasavvur qilish mumkin emas. Kuchli fuqarolik jamiyati demokratik davlatning muhim belgisi bo‘lib, aholi turli qatlamlari manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini beradi. Fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

BMT Inson huquqlari kengashining 2017-yilgi hisobotida fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish, kambag‘allikni qisqartirish, global ochlikning oldini olish kabi muammolarni hal etishda muhim vosita sifatida e’tirof etilgan. Chunki ijtimoiy muammolarni hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlari katta salohiyatga ega. Fukarolik jamiyati kurilishi mamlakatimizdagi isloxołtar strategiyasining bosh maksadi. Bunda, shubxasiz, jamiyat a’zolari ong va tafakkurining uziga xos urni, ulushi bor. Chunki u insonlar manfaati, dunyokarashi, ong va tafakkuri orkali idrok etiladi. Insonlarning isloxołtarga munoyeabati, ishtiroki bunda muxim urin tutadi[3].

Yevropa Ittifoqi davlatlarida mehnat qobiliyatiga ega aholining 5-15 foizi “uchinchি tarmoq” deb ataladigan fuqarolik jamiyati institutlarida faoliyat yuritadi. Bugun ijtimoiy yo‘nalishlarga jamoat tashkilotlari tomonidan davlat tashkilotlariga nisbatan uch barobar ko‘proq investitsiyalar jalb qilinadi. Fuqarolik jamiyati vakillarining 60 foizi ijtimoiy himoya va tibbiy yordam, shuningdek, ta’lim sohalarida xizmat ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishining yangi davri boshlandi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Harakatlar strategiyasi doirasida zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan normativ-huquqiy baza takomillashtirildi, nodavlat notijorat tashkilotlarining mavqeyini kuchaytirish, ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lmini kengaytirishga qaratilgan o'nlab yangi qonun hujjatlari qabul qilindi.

O'zbekiston Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan 2021—2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo'llab-quvvatlash hajmini 2025-yilda 1,8 baravarga oshirish va ajratiladigan mablag' miqdorini 70 milliard so'mga yetkazish vazifasi belgilangan.[4]

Nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim qadamlar tufayli sog'lijni saqlash, ijtimoiy himoya va ta'lim sohalaridagi ijtimoiy loyihalar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Prezidentimiz o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asarida "Erkinlik va ochiq fuqarolik jamiyati" mavzusida fuqarolik jamiyati institutlariga to'xtalib o'tgan. Xususan, asarda ushbu tashkilotlarni rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'naliishlar quyidagilardan iborat ekanligi keltirilgan:

- davlatning va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo'lga qo'yish;
- davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligining zamonaviy mexanizmlarini, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish choralarini joriy qilish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish;
- fuqarolik jamiyatining rivojlanishini, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasini, shuningdek, ularning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini baholovchi ko'rsatkichlarni ishlab



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

chiqish, bu ko'rsatkichlar asosida davriy va maxsus, jumladan, muqobil ma'ruzalar tayyorlanishini tashkil etish;

– fuqarolik jamiyatni institutlariga ularning xalqaro hamkorligini rivojlantirishda, ilg'or xalqaro tajribani o'rganishda va ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida joriy etishda ko'maklashish.

Yuqorida keltirib o'tilgan maqsadlar, ustuvor yo'nalishlar va vazifalar yaqin keljakda fuqarolik jamiyatni institutlarining faoliyati va davlat, jamiyat boshqaruvidagi rolini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari 2021-yil 4-mart sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021—2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 6181-farmoni qabul qilindi. Ushbu konsepsiyaning 2-bobida fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirishda ustuvor yo'nalish qilib fuqarolik jamiyatni institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish, davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyatni institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, davlat ijtimoiy loyihamalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyatni institutlarining ishtirokinini yanada kengaytirish, fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash kabi normalar belgilandi.[5]

Konsepsiyadagi bu kabi maqsad va vazifalar yaqin keljakda ushbu institutlarning faoliyatida katta o'zgarishlar amalga oshirilishidan dalolatdir.

2023-yil 1-maydan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobining "Fuqarolik jamiyatni institutlari" deb nomlanishi va konstitutsiyaviy institut darajasigacha ko'tarilishi bu tashkilotlarning jamiyat hayotida qanchalik katta o'rin egallashiga yana bir isbotdir. Xususan, Konstitutsiyaning 69-moddasida "Fuqarolik jamiyatni institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyatni institutlarning faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi" deb belgilangan. Ushbu norma fuqarolik jamiyatni institutlarning faoliyatini bevosita tartibga soluvchi hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga doir qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishga xizmat qilmoqda, shuningdek, bir qancha



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

davlat funksiyalarini bosqichma-bosqich ushbu institutlarga yuklash natijasida ularning faolligini oshirishga turtki bo‘lmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarini quyidagi mezonlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

1. Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar: xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlari; tadbirkorlar uyushmalari (palatasi) va boshqalar.

2. Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar: oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; ta’lim-tarbiya muassasalari (maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari); fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari; mustaqil ommaviy axborot vositalari; diniy tashkilotlar; milliy-madaniy markazlar; ko‘ngilli jamiyatlar; jamoatchilik fikrini aniqlash va o‘rganish institutlari; turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va boshqalar.

3. Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar: siyosiy partiylar; ijtimoiy-siyosiy harakatlar; inson huquqlarini himoya qiluvchi institutlar va boshqalar.

Bu institutni yanada takomillashtirish uchun birinchidan davlat va ma’muriy organlarning ularning faoliyatiga aralashuvini butunlay yo‘q qilish, iqtisodni va ijtimoiy sohalarda ularning faoliyatini erkinlashtirish, ularning huquqlarini mustahkam himoya qilish kerak.

Ikkinchidan esa qachonki mahalliy hokimiyatning vakolatlari jamoat birlashmalariga, asosan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahallalar)ga o‘tkazilsa, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda katta qadam tashlangan bo‘ladi.

Aksincha, agar mahalliy hokimiyatlarga ushbu institutlarining vakolatlari berilib borilsa, fuqarolik jamiyati qurish murakkab vazifaga aylanadi.

Umumlashtirib aytganda, amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar samaradorligiga erishish nafaqat davlat organlari, balki nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan ham faollik, tashabbuskorlikni talab qiladi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://streetlaw.uz/file/constitution/Fuqarolik%20jamiyati%20institutlari%20new.pdf>
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
3. Ergashev I. Siyosat falsafasi. Toshkent. Akademiya. 2004. 111-b.
4. Asatov A. Fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat taraqqiyotidagi roli. <https://huquqburch.uz/fuqarolik-jamiyati-institutlarining-mamlakat-taraqqiyotidagi-roli>.
5. Asatov A. Fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat taraqqiyotidagi roli. <https://huquqburch.uz/fuqarolik-jamiyati-institutlarining-mamlakat-taraqqiyotidagi-roli>.
6. Машарипова Г.К. Ўрта асрнинг буюк кашфиётлари - хоразмлик математикларининг илм-фан тараққиётига қўшган ҳиссалари. Монография. - Тошкент: Navro’z нашриёти, 2021. – 210 б.
7. Masharipova G.K. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va falsafiy qarashlari. Monografiya. - Toshkent, Fan ziyosi, 2022. - 160 b.
8. Masharipova G.K. The Role Of The Development Of Civilization Of Natural Scientific, Socio-Philosophical And Spiritual Information Of Scientists Of The Khorezm Mamun Academy. Monography. - Taemeer Publications LLC (Michigan, USA/ Hyderabad, India), 2024. - 242 p.